

(ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” HIKMATLARINING TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI)

Shodiya Otanazarova A’zambek qizi

Urganch davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Saddi Iskandariy” dostoni dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag‘ishlanganligi haqida, “SADDI ISKANDARIY” (“Iskandar devori”) — “Xamsa” (Navoiy)ning yakunlovchi dostoni ekanligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, doston, Saddi Iskandariy, turkiy til, Iskandar devori, Xamsa.*

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF “SADDI ISKANDARI” SAYINGS OF ALISHER NAVOIY

“Saddi Iskandariy” dostoni dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, “Xamsa”ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish hukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus “Iskandarnoma” degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida “Oyinayi Iskandariy” asarini yozgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy o‘z dostonini “Xiradnomayi Iskandariy” deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o‘z asariga “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) deb nom beradi. “Saddi Iskandariy” mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf (ruklari va taqti‘i: fauvlun fauvlun fauvlun faul V — V — V — V —) vaznida yozilgan.

“SADDI ISKANDARIY” (“Iskandar devori”) — “Xamsa” (Navoiy)ning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning mutaqorib bahrinda turkiyada yozilgan. Xamsanavislikning buyuk namoyandalari: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar Iskandar to‘g‘risida doston yozib, o‘z “Xamsa”lariga kiritganlar. Dastlab musulmon dunyosida Qur‘oni karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18sura, 83 —98oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandri bitta shaxs deb bilishgan va u sharkda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur Iskandarnomalarga Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda Iskandar timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to‘qima

obrazga aylana borgan. Har bir xamsanavis Iskandar timsolida o'z ideallarini talqin etishga harakat qilgan. (Shayxlar va domlalar tasdiqlashadiki, Iskandar Zulqarnayn va Aleksandr Makedonskiy farqli odamlardir, sababi Aleksandr Makedonskiy kofir bo'lgan. Iskandar Zulqarnayn esa bir necha bor Allohning yagonaligiga ishonch bildirgan). Navoiy o'z asari avvalida, salaflaridan farqli o'laroq, tarixiylikka, ko'proq tarix kitoblariga tayanib ish ko'rganini yozadi. Navoiy bu o'rinda o'z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur'ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning "Saddi Iskandariy" deb nomlanishida ham Qur'oni karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo'lganligi seziladi.

Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib-qoidalarni katta olamdagi tartib-qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa so'fiyona talqin bo'lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko'rish mumkin. Masalan, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko'rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini so'raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyo hoy-u havaslariga ortiqcha ruju qo'ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni

egallagan jahongir bo'lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi.

Doston turkiy adabiyotda ko'plab naziralar yozilishiga turtki bo'lgan (Abay, "Iskandar", 19-asr; Shayxzoda, "Iskandar Zulqarnayn", 20-asr va boshqalar). Iskandar obrazi she'riyatda an'anaviy obrazga aylangan.

Shoir Iskandar tarixini yozmoqchi emas. Iskandar bilan bog'liq voqealarning ma'nosini ochmoqchi. Shuning uchun voqealar izoh va talqinlar, hikoyatlar, savol-javob va lirik chekinishlar bilan almashinib keladi. Iskandar taxtga chiqar ekan, o'z atrofiga olimlarni to'playdi. ularning maslahati bilan ish ko'radi. U taxtni egallashga qiziqmaydi. Otasi unga taxtni topshirganida qattiq tashvishda qoladi. Oxiri xalqni yig'ib, maslahat soladi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar el oldiga shart qo'yadi. Kimning arz-dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib. ahvolini aytishini so'raydi. Shundan so'nggina davlat ishlariga kirishadi. Avvalo, mazlumning haqini haqlab, zolimning qo'lini kalta qiladi, adolatni yo'lga qo'yadi. Fuqaro ehtivojini hisobga olib, uni ikki yillik soliqdan ozod etadi. Dostonda oldin adolatning ta'rifi beriladi. Bu ta'rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So'ng Hindistonni olganda elga qilgan birgina adolati bilan jannatga tushgan Mali mud G'aznaviy haqidagi hikoyat ilova qilinadi. "Hikmat" bobidan esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-

javobi o‘rin olgan. Arastu fikricha, shoh odil bo‘lsa, olam unga tobe bo‘ladi. Chunki adolat qaror topgan mamlakat obod, obod mamlakatning xalqi badavlat bo‘ladi. Boylik askarga kuch beradi. Unday qo‘shin hamisha g‘olibdir.

Iskandarning Doro bilan to‘qnashuviga bag‘ishlangan tasvirlar ham dostonning qiziqarli va mazmundor sahifalaridandir. Doro nega mag‘lub bo‘ldi? Rum mulki Eronga har yili tuxum shaklidagi ming oltin xiroj to‘lar edi. Iskandar buni to‘xtatadi. Elchiga: “Tuxum beradigan qush allaqachon uchib ketgan”, — degan javobni aytadi. Doro g‘azabga kelib, bir chavgon va to‘p, bir xalta kunjut bilan boshqa bir elchini yuboradi. Buning ma‘nosi shu ediki, sen hali dimog‘idan sut hidi ketmagan bir go‘daksan, chavgonni olib, to‘p o‘yna. Agar xayolingga ixtilof-u nizo kelgudek bo‘lsa, askarlarimiz sanog‘ini mana shu kunjut qadar bilgin! Iskandar bundan boshqa ma‘no ko‘radi. Dumaloq koptok, uningcha yer yuzidir. Koptokning Iskandarga taqdim etilishi uning dunyoni olajagiga ishoradir. Chavgon esa Doroning o‘z mamlakatini topshirmog‘i belgisidir. Asarning shu o‘rnida kelishmovchiliklarning sababi nimada, ular qanday kelib chiqadi, buning oldini olish mumkinmi singari savollar o‘rtaga qo‘yiladi.

Jahon ichra mavjud erur necha xayi

Ki, borig‘adur kina qilmoqqa mayl, —

deb yozadi shoir. Uningcha, birining ikkinchisidan o‘zish istagi, o‘zmaganningo‘zganga g‘ashligi inson tabiatida bor. Ko‘rolmaslikka moyillikni har bir millatdan, har bir toifadan topish mumkin. Bu hol davlat ishlarida yanada aniqroq ko‘rinadi. Shohning yuz ming odami bo‘lsa-yu, hammasi noib bo‘lsa. birortasi undan uzoqroq turishni istaydimi? Yo‘q. Amirlar noiblikka, tumanboshilar amirlikka, qushbegilar tumanboshilikka intiladilar. Har bir guruh o‘zidan yuqoridagilar safiga o‘tishni orzu qiladi. Kin va nizoning manbayi shu yerda. Kishilar shohga qancha yaqin bo‘lsalar, ularning adovati shuncha ko‘p va kuchli bo‘ladi. Pastdagilarning jahllari qanchalik qattiq qo‘zg‘almasin, xusumatlari yengil o‘tadi, ulardan keladigan zararning ko‘lami kam. Bu zarar mansabning ko‘lami oshgan sayin kuchayib boradi. Shu jihatdan o‘rta bo‘g‘indagilarning nizolari ashaddiyroq va ularning noahilligidan keladigan zarar ko‘proq bo‘ladi. Mabodo, bu mojaro oliy martabali sultonlar o‘rtasida kechsa-chi?

Bu go‘yo jahon ichra to‘fon erur

Ki, andin jahon ahli vayron erur.

Ne to‘fon, balo bahri chayqolg‘oni,

Jahon ahli suv ostig‘a qolg‘oni.

Ikki shoh urush va adovatga bel bog‘lasa, jahon‘ahli ikki qo‘shinga bo‘linib, bir-biriga qarshi o‘tkir tig‘ ko‘tarib, bir-birini halok qilishga kirishadilar. Shoir urushning dahshatli manzaralarini chizadi. Bu manzaralar beixtiyor temuriylar, xususan, Husayn Boyqaroning o‘z o‘g‘illari bilan kurashlarini esga soladi:

Ato bir taraf gar erur, filmasal,
Yana jonib o'lsa, o'g'ulg'a mahal.
Ikisig'a kin o'ti solg'ay g'azab,
Ul o't qon icharg'a qilib tashnalab.
Atojon berib, o'g'lin o'lturgali,
O'g'ul ham anga tig'i kin surgali.
Qarindosh topsa qarindoshini,
Damodam tilab kesgali boshini.

Qondosh, qarindoshlar o'rtasidagi bu ahvol shoirni iztirobga soladi. Uni yotlar o'rtasida sodir bo'ladigan adolatsizliklar, bedodliklar o'ylantiradi:

Bu nav' o'lsa mundog' iki zot aro.
Ne bo'lg'ay gumon qil iki yot aro?

Xuddi shu o'rinda shoir ikki jahondor: Chingiz va Xorazmshoh urushidagi qirg'inni ikki sodiq do'stning ittifoqligi daf etgani haqidagi rivoyatni keltiradi. Urushda ikki do'st kofirlar qo'lga asir tushadilar. Qatl payti ular: „oldin meni o'ldir!“ — deb navbat talashadilar. Bu voqea Chingizning tushiga kiradi va ularni ozod qilib, qirg'inni to'xtatadi.

Navoiy Iskandar va Doro urushiga kitobxonni shunday tayyorlab keladi. Biroq kutilgan dahshatli to'qnashuv yuz bermaydi. Shoir yana ramziy hikoyalar, ruhiy holatlar, adolat va adolatsizlikning oqibatiga ishora qilish orqali masalaning eng to'g'ri yechimini topishga urinadi. Ikki qo'shin bir-biriga yuzma-yuz bo'lar ekan, Iskandar oqibatni o'ylaydi. U Doroni yo'ldan qaytarmoqchi edi, bo'lmadi. Ilm-u hikmat da'vosi bilan hovliqib urushga kirishdimikin? Shu payt katta xarsang ustida shiddat bilan bir- biriga tashlanib urushayotgan ikki kaklikka ko'zi tushadi. Biri — katta. baquvvat, bu—Doro, o'ylaydi Iskandar. Ikkinchisi — kichik, zaif, bu—men. Shu on to'satdan bir burgut pastga sho'ng'iydi-yu, kuchlisiga chang solib, uni osmon-u falakka olib ketadi. Iskandar buni yaxshilikka yo'yadi. Urush boshlanadi. Biroq ko'p o'tmay, Doroning noiblari xiyonat qiladilar. Doro yarador holda Iskandar qo'lga asir tushadi. So'ng shohlikning tartib-qoidalari, shohning aql-farosati, didi va zehni, mehri va qahri haqidagi bob keladi. Keyin Abusaid Mirzoning o'z sipohiga yaxshi qaramaganligi uchun urushda mag'lubiyatga uchrab, asir tushganligi voqealari beriladi.

Dostonda Iskandar yurishlarining izchil tarixini yaratish maqsadi qo'yilgan bo'lmasa-da, kitobxon bu haqda ma'lum tasavvurga ega bo'ladi. Iskandar Eronni egallagach, jahonni fath etishga kirishadi. Ko'p podshohlar unga bo'yin egib keladilar. Kashmir, hind, Chin xoqonlarigina o'zlarini tortadilar. Iskandar Xuroson va Movarounnahrni qo'lga oladi. Hirot, Samarqand shaharlarini egallaydi. So'ng Kashmirni zabt etadi. Iskandar Mag'ribni ham o'ziga bo'ysundiradi. Shimol safarini boshlaydi. Farang, Rusdan o'tib Qirvonga to'g'ri bo'ladi. U yerda xalqni ya'jujlardan

saqlash uchun Saddi Iskandariyni qurdiradi. Dengiz safariga chiqadi. Shisha sandiq yasab, ummon tubiga tushadi. Turfa ajoyibotlarni ko‘rib, vataniga qaytadi. Ko‘p o‘tmay, kasallanib yotib qoladi. Ona o‘rnida bo‘lgan enagasi Bonuga o‘g‘illikni o‘rniga qo‘ya olmaganidan uzr so‘rab, xat yozadi. Vafot etar ekan, Iskandar bir qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishni iltimos qiladi. Bu bir ibrat, pand edi. Jahonni egallagan jahongirning u dunyoga hech bir narsasiz. ochiq qo‘l bilan ketayotganiga ishora edi.

Navoiy “Saddi Iskandariy”da ham “Xamsa”ning oldingi dostonlaridagi kabi voqealarni, iloji boricha, Xuroson va Turkiston bilan bog‘lashga harakat qiladi. Chunonchi, Samarqand va Hirotning bino qilinishiga alohida to‘xtaydi. Doro va Iskandar to‘qnashuvi munosabati bilan askarlarni ta‘rif etarkan, “ikki o‘rim sochdek bir-biroviga chirmashib ketgan yuz ming sonlik o‘zbek va mang‘it qahramonlari”ni iftixor bilan tilga oladi.

Mutafakkir o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn”ida: „...umidim uldur va xayoling‘a andoq kelurkim, so‘zum martabasi avjdan quyi inmagay”,— deb yozganiday uning shuhrati hayotlik paytidayoq olamga yoyildi. Ulug‘ shoirning kitoblari dunyo tillariga qayta-qayta tarjima qilindi va qilinmoqda. Shoir asarlariga bag‘ishlangan maxsus lug‘atlar paydo bo‘ldi. Navoiy ijodiyoti umumturk madaniyatining jahoniy shuhratini ta‘min etib keldi. U birgina o‘zbekning emas, butun turkiy olamning boshida toj bo‘lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X., O‘zbek tili (Oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent:O‘qituvchi, 2012.-288b.
- 2.Husanov N.,Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili. Darslik. – Toshkent:—Iqtisod-moliya ,2020.-515 b.
- 3.Lafasov U. O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDSHI, 2016.-532b.
- 4.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T.:«Fan»,1993. - 640 b.
5. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni konkordansi (Tuzuvchilar: 6.A.Quronbekov, A.Mannonov, M.Imomnazarov, D.Ahmedova, A.Nishonboyeva) T.: TDSHI, 2016. – 832b.